

TEATR SAN'ATINING ZAMONAVIY RIVOJIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

G'aniyeva Dono Abduvahob qizi

Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn instituti
magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18487448>

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy teatr san'atida innovatsion yondashuvlarning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilinadi. Postdramatik va vizual teatr, raqamli texnologiyalar va interaktiv sahna yechimlari teatrning estetik imkoniyatlarini kengaytiradi va tomoshabinning ijodiy ishtirokini ta'minlaydi. Maqolada sahna dizayni, innovatsion va eksperimental spektakllarning badiiy ahamiyati yoritilgan.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты инновационных подходов в современном театральном искусстве. В частности, рассматривается роль постдраматического и визуального театра, цифровых технологий и интерактивных сценических решений в расширении эстетических возможностей театра. Научно обосновывается значение активного творческого участия зрителя в театральном процессе. Также в статье анализируется художественно-эстетическая значимость сценического дизайна, инновационных и экспериментальных спектаклей.

Abstract. This article analyzes the theoretical and practical aspects of innovative approaches in contemporary theatre art. In particular, it examines the role of postdramatic and visual theatre, digital technologies, and interactive stage solutions in expanding the aesthetic possibilities of theatre. The study scientifically substantiates the importance of active creative participation of the audience in the theatrical process. In addition, the artistic and aesthetic significance of stage design, as well as innovative and experimental performances, is explored.

Kalit so'zlar: Teatr san'ati, zamonaviy teatr, innovatsion yondashuv, performans, vizual teatr, raqamli texnologiyalar, sahna dizayni, interaktivlik.

Zamonaviy dunyoda ijtimoiy, madaniy va texnologik jarayonlarning jadal rivoji san'atning barcha turlariga, xususan, teatr san'atiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Globallashuv, raqamli texnologiyalar va axborot makonining kengayishi natijasida insonning san'atni idrok etish usullari o'zgarmoqda.

Ana shu sharoitda teatr san'ati o'zining an'anaviy shakl va ifoda vositalarini qayta ko'rib chiqib, zamon talablariga moslashib kelyapti. Natijada teatr sahnasida yangi estetik qarashlar, ijodiy izlanishlar va innovatsion yondashuvlar yuzaga kelmoqda¹.

Tarixga nazar tashlar ekanmiz, teatr jamiyat hayotining muhim ijtimoiy-madaniy hodisasi sifatida shakllangan bo'lib, u inson ruhiyati, ijtimoiy muammolarni badiiy ifodalash vositasi bo'lib xizmat qilgan. Biroq XXI asrda teatr faqat dramatik matn va aktyorlik ijrosiga asoslangan an'anaviy san'at turi sifatida emas, balki ko'p qatlamli, texnologiyalar bilan uyg'unlashgan sintez san'at sifatida namoyon bo'lmoqda². Bu jarayonda vizual ifoda, sahna makonining transformatsiyasi, multimedia vositalari va interaktiv elementlar teatr tomoshasining ajralmas qismiga aylanadi.

Teatr san'atining yana bir ajralmas qismlaridan biri sanalgan zamonaviy tomoshabinning estetik didi va san'atdan kutgan talablari ham tubdan o'zgargan.

Bugungi tomoshabin sahnadan nafaqat hikoya yoki syujet, balki kuchli hissiy ta'sir, vizual obrazlar va bevosita ishtirok tajribasini kutadi. Shu sababli teatr san'atida innovatsion yondashuvlar zaruriy ehtiyojga aylanib, uning rivojlanish strategiyasini belgilab bermoqda³.

Innovatsiyalar orqali teatr san'ati o'zining kommunikativ imkoniyatlarini kengaytirib, yangi auditoriyani jalb etishga erishmoqda.

Teatr zamonaviy muammolarni yoritish, inson va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib berish, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishda muhim platformaga aylangan.

Teatr san'ati bugungi zamonaviy ko'rinishga kelgunga qadar bir nechta bosqichlarni bosib o'tgan. Zamonaviy teatr XX asr oxirlarida estetikaga xos bo'lgan eksperiment va erkin talqinlar asosida shakllandi. Ushbu davrda teatrdan an'anaviy dramaturgiya va sahna realizmi o'rni falsafiy, ramziy ifoda va vizual tafakkur egallay boshladi². Postmodern yo'nalishida teatrdan syujetning izchilligi emas, balki g'oya va hissiy ta'sir ustuvor ahamiyat kasb etadi. Natijada tomoshabin passiv kuzatuvchi emas, balki sahna jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. Bu holat teatr san'atida innovatsion yondashuvlarning paydo bo'lishiga zamin yaratdi³.

Raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va tezkor vizual axborot muhitida ulg'aygan yosh avlod an'anaviy teatr tomoshalarini har doim ham yetarli darajada jozibador deb qabul qilmaydi, o'ylaymanki, hozirgi kunda zamonaviy teatrning asosiy maqsadlaridan biri — tomoshabinni, ayniqsa yoshlarni teatr muhitiga faol jalb qilishdir. Bugungi kunda dunyo teatr amaliyotida ushbu muammo innovatsion, ijtimoiy va estetik yondashuvlar orqali hal etilmoqda.

Zamonaviy teatrdan immersiv, interaktiv va performativ shakllar rivoj topmoqda. Dunyo teatr amaliyotida yosh auditoriyani jalb etish uchun quyidagi innovatsion shakllar keng qo'llanilmoqda:

Tomoshabinni faol ishtirokchiga aylantirishga asoslangan dramaturgiya, an'anaviy teatrdan tomoshabin passiv kuzatuvchi bo'lsa, immersiv teatrdan u:

- voqealar ichiga kiradi,
- qahramonlar bilan muloqot qiladi,
- ba'zan syujet rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi

sahna va zal o'rtasidagi chegaralar butunlay yo'qoladi. Makon spektaklning dramaturgik elementiga aylanadi.

Bitta spektakl ichida:

- bir vaqtning o'zida bir nechta sahnalar,
- turli xonalar va voqealar kechadi.

Tomoshabin qaysi qahramonni kuzatishni o'zi tanlaydi. Natijada har bir tomoshabin boshqa hikoyani ko'radi.

Immersiv teatr faqat ko'rish emas, balki:

- hid
- tovush
- harorat
- yorug'lik

orqali ham ta'sir qiladi.

Zamonaviy immersiv spektakllarda:

- AR (kengaytirilgan reallik)
- VR (virtual reallik)
- audio gidlar
- individual quloqchinlar
- mobil ilovalar

keng qo'llaniladi.

Immersiv teatr aktyorlaridan:

- yuqori darajadagi improvizatsiya
- tomoshabin psixologiyasini sezish
- kutilmagan vaziyatlarga tez moslashish

talab etiladi.

Aktyor tomoshabinning har bir harakatiga mos ravishda sahnani jonli ravishda o'zgartiradi.

Ba'zi zamonaviy loyihalarda teatr:

- ritual
- psixologik tajriba
- meditatsiya
- performans san'ati

bilan uyg'unlashadi.

Bu shakl tomoshabinni nafaqat ko'ngilochar, balki ichki kechinmaga chorlaydi.

Masalan, Yevropa va AQSh zamonaviy va eksperimental teatrlarida keng tarqalgan immersiv loyihalarda tomoshabin makon ichida erkin harakatlanib, voqeani o'z nuqtai nazaridan idrok etadi. Bu shakl yoshlar uchun ko'ngilochar, tajriba va kashfiyot xarakteriga ega. Teatr yosh tomoshabinni jalb qilishda performans (performance — postmodernizm yo'nalishi doirasida shakllangan eksperimental badiiy shakl.) san'ati va eksperimental laboratoriyalardan faol foydalanmoqda. Ushbu shakllar qat'iy syujetdan xoli bo'lib, dolzarb ijtimoiy va shaxsiy muammolarni sahna tilida erkin ifodalaydi. Performans teatr san'atining vaqt va makon chegaralarini kengaytirib, uni ko'cha, galereya, ko'ngilochar bog'lar kabi noan'anaviy maydonlarga olib chiqadi. Bu holat teatr san'atining ijtimoiy va madaniy hayot bilan integratsiyalashuviga xizmat qiladi.

Zamonaviy teatr faqat sahna bilan cheklanib qolmay, madaniy muloqot markaziga aylanmoqda. Ko'plab xorijiy teatrlar: ochiq muhokamalar; tomoshabinlar bilan uchrashuvlar; yoshlar uchun mahorat darslari va seminarlar tashkil etish orqali auditoriya bilan doimiy aloqani yo'lga qo'ymoqda. Bu esa yosh tomoshabinning teatrga nisbatan qiziqishini kuchaytiradi.

Teatr san'atida innovatsiyalar quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'lmoqda: raqamli va multimedia texnologiyalarining joriy etilishi, sahna makonining transformatsiyalanishi, yorug'lik va ovoz dizaynining mustaqil badiiy tilga aylanishi, interaktiv va immersiv teatr shakllarining rivoji. Mazkur yondashuvlar teatrning estetik imkoniyatlarini kengaytirib, zamonaviy tomoshabinning idrokiga moslashishiga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalardan sahna bezaklarida ham video proyeksiya, LED ekranlar, 3D mapping va virtual muhit texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Ushbu vositalar sahna bezaklarini dinamik vizual makonga aylantiradi. Bu esa teatr tomoshasining badiiy ta'sirchanligini oshirib, tomoshabinning hissiy va estetik qabulini kuchaytiradi.

Bunday yondashuv teatr va tomoshabin o'rtasidagi chegaralarni yo'qotib, san'atni jonli tajribaga aylantiradi. Immersiv teatr shakllari zamonaviy tomoshabinning faol idrokiga mos kelib, teatr san'atining innovatsion rivojini ta'minlamoqda. Innovatsion teatr aktyorlik san'atiga ham yangi talablarni qo'yadi. Zamonaviy aktyor nafaqat matn ijrochisi, balki jismoniy harakat, plastika, improvizatsiya va texnologiya bilan ishlash qobiliyatiga ega bo'lishi lozim³. Ko'plab spektakllarda aktyor video proyeksiya, ovoz effektlari va raqamli muhit bilan bir vaqtda faoliyat olib boradi. Bu esa aktyorlik mahoratining yangi shakllarini yuzaga keltirib, teatr san'atining professional darajasini oshiradi.

Bugungi kunda teatr xalqaro festivallar, zamonaviy spektakllar namoyishlari orqali rivojlanmoqda⁴. Turli madaniyatlarning sahna tilida uyg'unlashuvi teatr san'atining yangi estetik shakllarini yuzaga keltirishga yordam beradi.

Teatr san'atida tomosha jarayonining muvaffaqiyati nafaqat sahnadagi ijro, balki teatr binosining me'moriy va dizayn yechimlari bilan ham bevosita bog'liqdir. Teatr binosi tomoshabin va sahna o'rtasidagi estetik va psixologik aloqani shakllantiruvchi muhim makon hisoblanadi.

Binoning umumiy dizayni tomoshabinning spektaklni qabul qilishi, hissiy holati va san'at asariga bo'lgan munosabatiga, kayfiyatiga, madaniy hordiq chiqarishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.^{6}. Teatr foyesidan boshlab tomoshabin san'at muhitiga kirib boradi. Ranglar uyg'unligi, yoritish tizimi, materiallar tanlovi va makon kompozitsiyasi tomoshabinda bayramona kayfiyat, tantanavorlik yoki dramatik ruhni shakllantiradi. Bu jarayon spektakl boshlanishidan oldin tomoshabinning psixologik tayyorgarligini ta'minlaydi.

Zal dizayni teatr binosidagi eng muhim elementlardan biridir. O'rindiqlar joylashuvi, ko'rinish burchagi va akustik yechimlar tomoshabinning sahnada kechayotgan voqealarni to'liq idrok etishiga xizmat qiladi. To'g'ri loyihalangan zal tomoshabinda sahna bilan yaqinlik hissinu uyg'otib, spektaklga chuqurroq sho'ng'ish imkonini beradi.. Zamonaviy teatr binolarida dizayn faqat bezak vazifasini emas, balki funksional va kommunikativ rolni ham bajaradi.

Transformatsiyalanuvchi makonlar, ochiq sahna tizimlari va interaktiv yechimlar tomoshabinni jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. ^{7}.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, teatr san'atining zamonaviy rivoji innovatsion yondashuvlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu jarayon san'atning mazmuniy va shakliy jihatdan yangilanishiga xizmat qiladi. Zamonaviy teatr an'anaviy dramatik qoliplardan chiqib, texnologiya, vizual madaniyat va interaktiv ifoda vositalari bilan boyib, ko'p qatlamli estetik hodisaga aylanmoqda.

Raqamli texnologiyalar, multimedia vositalari, sahna makonining transformatsiyalanuvchi shakllari hamda vizual teatr unsurlarining keng qo'llanilishi teatr san'atining badiiy imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi.

Shuningdek, rejissyorlik izlanishlari, eksperimental va immersiv spektakllar teatr san'atining estetik chegaralarini kengaytirib, uning yangi ifoda shakllarini yuzaga chiqarmoqda.

Teatr san'atida texnologiya va ijodiy tafakkurning uyg'unlashuvi badiiy g'oyaning yanada ta'sirchan, obrazli va zamonaviy talqinini ta'minlaydi. Bu jarayon teatrning nafaqat san'at turi sifatidagi, balki madaniy-ma'rifiy va ijtimoiy institut sifatidagi mavqeini mustahkamlaydi.

Innovatsion yondashuvlar teatr san'atining zamonaviy rivojida muhim strategik omil hisoblanadi. Ular orqali teatr san'ati o'zining boy an'alarini saqlagan holda, zamon talablari va tomoshabin ehtiyojlariga mos ravishda yangilanib boradi.

Texnologiya va yangi shakllar teatrning asosiy mohiyati — inson ruhiyati, ijtimoiy muammolar va badiiy g'oyani ifodalashga xizmat qilgan taqdirdagina o'z samarasini beradi. Aks holda, innovatsiya faqat tashqi effekt darajasida qolib ketishi mumkin. Teatr san'atining zamonaviy rivojida innovatsion yondashuvlar uning kelajak istiqbolini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Innovatsiyalar orqali teatr san'ati o'zining tarixiy ildizlarini saqlagan holda, zamon bilan hamnafas rivojlanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lehmann H.-T. *Postdramatic Theatre*. London: Routledge, 2006.
2. Carlson M. *Theories of the Theatre*. New York: Cornell University Press, 2014.
3. Pavis P. *Dictionary of the Theatre*. Toronto: University of Toronto Press, 2013.
4. Fischer-Lichte E. *The Transformative Power of Performance*. New York: Routledge, 2008.
5. Brook P. *The Empty Space*. London: Penguin Books, 1996.
6. Lehmann H.-T. *Postdramatic Theatre*. London: Routledge, 2006.
7. Carlson M. *Theories of the Theatre*. New York: Cornell University Press, 2014.